Mamlakatimizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mehnat bozorining yuksak talablariga javob beradigan professional kadrlarni samarali tayyorlashni ta'minlovchi yangicha yondashuvlarni izlash zaruratini tug'dirmoqda. Hozirgi kunda oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarga iqtisodiy bilim berish orqali ularning kasbiy faoliyat darajasini oshirish dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy ta'lim-tarbiya berishdagi izchillik va muvofiqlikni o'rganish muhim masaladir. Hozirgi kunda zamonaviy mutaxassislarga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Jamiyatdagi iqtisodiy-ijtimoiy shart-sharoitlar, iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiy tizimlar jadal rivojlanmoqda. Shu bois oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash jarayoni, ularda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirishning shakl va uslublari, yosh avlodni amaliy mehnat faoliyatiga tayyorlash masalalarini chuqur tahlil etish maqsadga muvofiqdir (2019).

Maqolaning maqsadi — oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash muammosi bo'yicha mahalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish, ushbu yo'nalishdagi yetakchi tadqiqotlarni umumlashtirish hamda mavjud ilmiy bo'shliqlarni aniqlashdan iborat.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, mahalliy va xorijiy manbalarni qiyosiy tahlil qilish, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Dissertatsiya tadqiqotlari, monografiyalar va ilmiy maqolalar mazmunan tahlil qilinib, ularda ilgari surilgan g'oya va natijalar muammoning turli jihatlari, xususan, boshqaruv, pedagogik menejment va iqtisodiy kompetensiya bo'yicha guruhlandi. Tadqiqot materiallarini tizimlashtirish, tahlil qilish va maqola matnini tayyorlash jarayonida yordamchi vosita sifatida sun'iy intellekt texnologiyalaridan 10 foizgacha foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

***Mahalliy olimlarning boshqaruv va pedagogik menejmentga oid tadqiqotlari***

Oliy ta'lim tizimida innovatsion boshqaruvni shakllantirish va boshqaruv kompetentligini rivojlantirish bo'yicha bir qator olimlar muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Jumladan, S.S. G'ulomov o'z tadqiqotlarida ta'lim muassasalarida boshqaruvni modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda raqamli ta'lim muhitini yaratish orqali samaradorlikni oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratgan. M.T. Mirsoliyeva oliy ta'limda pedagogik menejmentni takomillashtirish va bo'lajak mutaxassislarning boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqqan bo'lsa, M. Pardayev iqtisodiy ta'lim yo'nalishlarida boshqaruv samaradorligini oshirish hamda bozor talablariga mos kadrlar tayyorlashning innovatsion usullarini taklif etgan. Yo.U. Ismadiyarov va O.X. Xamidov esa oliy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruv yondashuvlari, sifat menejmenti hamda universitetlarning xalqaro reytinglardagi mavqeyini oshirish masalalarini ilmiy asoslab bergan. M. Sharifxo'jayevning ishlari esa kadrlar tayyorlashda zamonaviy boshqaruv metodologiyasini amaliyotga joriy etishga qaratilgan.

***Xorijiy va MDH olimlarining ilmiy izlanishlari***

Zamonaviy boshqaruvning rivojlanishida R. Anisimov, P. Ananin, T. Vasileva, Z. Bagirova, E. Belova, I. Gancherenok, O. Karpova, S. Muxoyed, O. Sitnikova, M. Shifrin va boshqalarning ishlari ahamiyatli ekanini ta'kidlab o'tish lozim. Oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv masalalari A. Egorshin va S. Reznikning ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Biroq zamonaviy rahbar kadrlarni tayyorlash uchun oliy ta'limda samarali pedagogik shart-sharoitlar yaratish va maqsadli tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar tomonidan oliy ta'limda innovatsion boshqaruv, kadrlar kompetentligini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirish yo'nalishlarida muhim tadqiqotlar olib borilgan bo'lsa-da, ularning aksariyati mahalliy tajribaga asoslangan. Ilg'or xorijiy tajribalarni, xususan, Yevropa va AQSh universitetlarida qo'llaniladigan menejerlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini chuqur o'rganish va ularni milliy tizimga moslashtirish borasidagi ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiqdir. Shu bois xorijiy ilg'or amaliyotlarni integratsiya qilish yo'nalishidagi ilmiy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

***Kelajak mutaxassis modeli***

Iqtisodchilarni kasbiy tayyorlashda ta'lim omillarining ta'sirini o'rganishda MDH olimi O.V. Jironkina tomonidan taklif etilgan kelajak mutaxassis modeliga murojaat qilish mumkin. Ushbu modelga ko'ra, kelajak iqtisodchilarini tayyorlashda uchta asosiy yondashuvni ajratish mumkin: 1) ijtimoiy yo'naltirilgan; 2) amaliyotga yo'naltirilgan; 3) gumanitar yo'nalishga ega bo'lib, oliy ta'limning nazariy yo'naltirilgan amaliyoti bilan to'ldirilgan yondashuv. Olim fikriga ko'ra, mutaxassisni tayyorlash — uning "modelini" yaratish jarayonida kelajak iqtisodchisining maqbul holati va xususiyatlarini, ya'ni uning "obrazi"ni belgilash, shuningdek, mazkur obrazga erishish algoritmini ishlab chiqish zarur. Bu jarayonga, o'z navbatida, oliy ta'lim pedagogikasining rivojlanishi va oliygohlarda iqtisodchilarni tayyorlash amaliyoti ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning istiqboli ta'lim tizimining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. Ta'lim sohasida yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik o'z samarasini bermoqda. Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va zamon talablariga moslashtirish borasidagi kelajak strategiyasi aniq belgilab berilgan. Ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri dunyodagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari tajribasiga asoslangan holda eng zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishdir. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etishga oid N.A. Muslimov va M.H. Usmonboyevaning ilmiy ishlarida innovatsion, modul, hamkorlik, interfaol, muammoli, masofaviy, kompyuter, loyiha, rivojlantiruvchi, tabaqalashtirilgan, individual, dasturiy va mustaqil ta'lim texnologiyalarining mohiyati, nazariy asoslari hamda turlari (2015) to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar berilgan.

***Pedagogik-psixologik asoslar***

E.F. Foziyev (2008), B.S. Qodirov (2022), M.G‘. Davletshin (1971), V.M. Karimova (2008), L.S. Vigotskiy (2010), S.L. Rubinshteyn (2002) va boshqalar o‘z ilmiy ishlarida bo‘lajak mutaxassislarda umumiy savodxonlik va aqliy qobiliyatni rivojlantirish, ularni iqtisodiy tarbiyalashga yo‘naltirishning pedagogik-psixologik asoslari haqida e’tiborga molik fikrlarni ilgari surgan.

Ta’lim va tarbiya sohasida iqtisodiy islohotlarning paydo bo‘lishiga oid masalalar bo‘yicha P.R. Atutov, B.T. Lixachev va boshqalar izlanishlar olib borgan. Ularning fikricha, iqtisodiy ta’lim va tarbiya pedagogik faoliyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, yoshlarning iqtisodiy ongini shakllantirishga qaratilgan maxsus o‘ylangan ish tizimidir. Olimlarning fikricha, iqtisodiy ta’lim iqtisodiy tafakkurni rivojlantirishga, axloqiy va ishbilarmonlik fazilatlari, ijtimoiy faollik hamda tadbirkorlikni shakllantirishga xizmat qilishi kerak.

Yigirmanchi asr pedagogik adabiyotida L.S. Vigotskiy (2010), S.L. Rubinshteyn (2002), Yu.K. Babanskiy (2022), V.V. Davydov (1972), M.A. Vasileva (2005), N.F. Vinogradova (2009), O.S. Bogdanova (1988), F.F. Korolev (1989), V.V. Krayevskiy (1994), N.A. Menchinskaya (1971), A.K. Markova (1993), V.S. Muxina (2004), S.A. Kozlova (2023) va boshqa olimlar yoshlar ijodiy tafakkurining rivojlanish jarayoni ularning bilim va fanni o‘zlashtirish, atrofdagi hayotni idrok etish qobiliyatini rivojlantirishga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar. L.S. Vigotskiy shaxsni tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlarini boshqarishdan oldin uning o‘zini o‘zi tarbiyalash va rivojlantirish jarayonlariga bosqichma-bosqich o‘tish lozimligini asoslab bergan.

***Iqtisodiy kompetensiyani shakllantirishga oid MDH tadqiqotlari***

MDH mamlakatlarida iqtisodiyot ta’lim yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash hamda ularda iqtisodiy bilimlarni shakllantirish masalalari P.V. Skripchenko (n.d.), I.N. Smirnova (2015), P.N. Podlavil’cheva (2013), F.I. Filchenkova (2013), M.A. Pautova (2006), S.A. Boroday (2004) tomonidan, iqtisodiy kompetensiyani shakllantirish esa Y.V. Puziyenko (2007), Y.Y. Ovakimyan (2010), G.M. Morozova (n.d.) tomonidan tadqiq etilgan.

Jumladan, P.N. Podlavil’chevaning (2013) «Iqtisodiy yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak mutaxassislarida kasbiy kompetensiyalarni samarali shakllantirishning omili sifatida deduktiv metod» mavzusidagi dissertatsiya tadqiqotida «deduktiv mantiq» va «deduktiv iqtisodiy fikrlash» tushunchalari aniqlashtirilgan, oliy ta’lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o‘qitishning samarali omili sifatida deduktiv metodning mazmun va mohiyati ochib berilgan, deduktiv metodlarni o‘qitish asnosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli tajriba asosida tekshirilgan va ilmiy jihatdan asoslangan.

Y.V. Puziyenko «Bo‘lajak mutaxassislarning iqtisodiy kompetensiyasini shakllantirish» nomli dissertatsiyasida o‘quv jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning iqtisodiy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shartlari asoslangan, iqtisodiy bilimlarning sintezi sifatida «iqtisodiy kompetensiya» tushunchasining mazmuni ochib berilgan, o‘quv jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning iqtisodiy kompetensiyasini shakllantirish bo‘yicha kompleks dastur ishlab chiqilgan.

Y.Y. Ovakimyanning (2010) «Universitet bo‘lajak mutaxassislarining iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirish» nomli dissertatsiya ishida bo‘lajak mutaxassislarning iqtisodiy kompetensiyasini rivojlantirishning amaliyotga yo‘naltirilgan modeli va uni muvaffaqiyatli amalga oshirishning pedagogik shartlari ishlab chiqilgan hamda tekshirilgan. Iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy-uslubiy asosi insonparvar pedagogika paradigmasida me’yoriy, biznesga yo‘naltirilgan va kontekstual yondashuvlarning uyg‘unligi ekanligi isbotlangan bo‘lib, bu mazkur jarayonni yaxlit holda o‘rganish imkonini beradi.

G.M. Morozovaning (n.d.) tadqiqot ishida bo‘lajak mutaxassislarning iqtisodiy kompetensiyasini shakllantirish modelini nazariy asoslash va eksperimental tekshirish maqsad sifatida belgilangan bo‘lib, «mutaxassislarning iqtisodiy kompetensiyasi» tushunchasi insonning iqtisodiy bilimlari, amaliy tayyorgarligi hamda boshqaruv jarayonida iqtisodiy faoliyatning barcha turlarini amalga oshirish qobiliyatining birligida ifodalangan integral sifat sifatida aniqlangan. Shuningdek, bo‘lajak mutaxassisning to‘g‘ri va o‘z vaqtida qaror qabul qilish qobiliyati hamda tayyorligiga qaratilgan kasbiy faoliyat uchun iqtisodiy ta’limning ahamiyati yoritib berilgan.

**O‘zbekistonlik olimlarning hissasi**

Respublikamizda bozor munosabatlarini qaror toptirish sharoitida ta’lim muassasalarida iqtisodiy ta’lim-tarbiya berish masalalarini o‘rganish maqsadida yaratilgan dasturlar, darsliklar, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar tahlil qilindi. N. Sanayev (2004), K.N. Kamolova (2005), A. O‘lmasov (2003), A. Vahobov (2014), A.M. Abdullayev (2003), A. Soliyev (1998), M.S. Mirsaidov (2002), N. Yo‘ldoshev (2013), S. G‘ulomov (2001), V.G. Matveyev (1998), B.T. Salimov (2003), H.T. Ahmadxo‘jayev (2004) va boshqa ko‘plab iqtisodchi olimlar o‘z ishlarida iqtisodiy bilim berish muammosini yoritganlar.

A. Ergashev (2022), A.N. Abdullayev (2005), A.A. Ismoilov (2013), A.I. Ishnazarov (2007), H. Aybeshov (2011), Sh.X. Abdullayeva (2017), H. Madrahimov (2002), T. Tashmurodov (2004), R. Madrahimova (2002) va boshqalarning ishlari iqtisodiy ta’lim berishning amaliy masalalari hamda kasbiy-iqtisodiy bilim

berish muammolarini yoritishga bag'ishlangan. Iqtisodiy ta'lim berish metodikasi va unga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muammolari bilan esa A. O'lmasov (2003), N. Xo'jayev (2003), A. Razzoqov (2002), U.I. Inoyatov (2013), R.R. Hakimov (2005) va boshqalar shug'ullangan (Jumanov, 2019).

Bo'lajak mutaxassis yoshlarda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari, iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalari, iqtisodiy tafakkur, iqtisodiy kompetentlik va iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishga oid ilmiy tadqiqotlar K.N. Kamalova (2005), A.Sh. Saipnazarov (1998), G'.A. Nabiyev (2021), Z.N. Sayfullayeva (2022), I.B. Ilxomov (2021), M.N. Quchqorova (2020) va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

K.N. Kamalovaning (2005) «Bo'lajak mutaxassis yoshlarda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari» nomli tadqiqot ishida bo'lajak mutaxassis yoshlarda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan hamda quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan: iqtisodiy tarbiyaga doir xalq pedagogikasi manbalari va Sharq mutafakkirlarining ilg'or g'oyalarini aniqlash; bo'lajak mutaxassis yoshlarning iqtisodiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish; iqtisodiy bilim va malakalarni rivojlantirishning mazmuni, samarali shakl, metod va vositalarini aniqlash; ularning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish (2005).

Pedagog olim A.Sh. Saipnazarov (1998) tadqiqotlarida bo'lajak mutaxassislarning iqtisodiy ta'limi va tarbiyasini, tafakkurini rivojlantirishning yo'l va vositalari ishlab chiqilgan bo'lib, quyidagi ilmiy yangiliklar asoslangan: bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdagi potensial imkoniyatlar ochib berilgan; bo'lajak mutaxassislar o'zlashtirishlari mumkin bo'lgan iqtisodiy tushuncha va qonuniyatlar tizimi aniqlangan; iqtisodiy mazmundagi masalalarni tanlash va tuzish prinsiplari ishlab chiqilgan.

N.Z. Sayfullayevaning (2022) «Bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy tafakkurni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish» nomli ilmiy tadqiqot ishida bo'lajak mutaxassislarda innovatsion texnologiyalar asosida iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish masalalari tahlil qilinib, jamiyat taraqqiyotining asosiy (makro va mikro) maqsadlariga yo'naltirilgan innovatsion iqtisodiy tafakkur tushunchasining mohiyati, bilimlarning innovatsiyaga aylanish bosqichlaridagi iqtisodiy fikrlash tuzilmasi va turlari aniqlashtirilgan. Iqtisodiy fanlarni o'qitishda iqtisodiy tafakkurni rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalarini loyihalash jarayonining o'zaro aloqador elementlari belgilangan, oliy ta'lim muassasalarida iqtisodiy fanlarni o'qitishning ilmiy-uslubiy ta'minoti — pedagogik jarayonlarning metodik kompleksi (tavsiyalar, ishlanmalar, resurslar, ssenariylar) hamda bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy tafakkurning rivojlanish darajasini baholash tuzilmasi ishlab chiqilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan ilmiy-nazariy tahlil shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda innovatsion boshqaruv, pedagogik menejment, kelajak mutaxassis modeli, iqtisodiy kompetensiya va iqtisodiy tafakkurni rivojlantirish yo'nalishlarida mahalliy hamda MDH olimlari tomonidan salmoqli ilmiy natijalar qo'lga kiritilgan. Shu bilan birga, tahlil ilg'or xorijiy, xususan, Yevropa va AQSh tajribasini milliy tizimga integratsiya qilish borasidagi tadqiqotlarni yanada kengaytirish zarurligini, shuningdek, oliy ta'limda kreativ yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash muammosini alohida tadqiq etishga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatdi.

Adabiyotlar tahlili asosida shuni ta'kidlash mumkinki, iqtisodiyot ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarni boshqaruv faoliyatiga tayyorlash metodlarini ishlab chiqish hamda ularda iqtisodiy savodxonlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlarni yanada rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur yo'nalishda maqsadli ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI


1. Abdullaev J.J. The impact of digital marketing on education export in regional higher education institutions // "Kasbiy ta'limda ilg'or xalqaro tajribalar asosida kadrlar tayyorlashni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent, 2026. – 1-jild. – B. 231–233. – DOI: 10.5281/zenodo.20130965.
2. Abdullaev J.J. Value Chain Evolution: Existing Theories, Vision, and Future Trend // European Journal of Economics, Finance and Business Development. – 2024. – Vol. 2, No. 3. – P. 1–7.
3. Abdullayev J. Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati // Green Economy and Development. – 2025. – Vol. 3, No. 4. – DOI: 10.5281/zenodo.15400804.
4. Abdullayev J. O'zbekistonda tibbiy ta'lim eksportining rivojlanish tendensiyalari // Green Economy and Development. – 2025. – Vol. 3, No. 3. – DOI: 10.5281/zenodo.15161877.
5. Abdullayev J. Theoretical Foundations of Value Chain Formation // Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – № 21. – URL: https://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/1415.

6. Abdullayeva Sh.X. Professional kompetentlilikning ijtimoiy-psixologik asoslari : monografiya. – Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2017.
7. Ahmadxo'jayev H.T., Mirdadayev K.M., Qozoqov O.S. Menejment va strategiyani boshqarish. – Ilm ziyo, 2004.
8. Aybeshov H.A., Ergashev A., Yo'lchiyev E., Ismoilov A. Marketing asoslari : amaliy mashg'ulotlar. – Ilm ziyo, 2011.
9. Azimov B.F., Abdullaev Zh.Zh. The Role of Export Activity in the Country's Economy // Confrencea. – 2022. – Vol. 5, No. 5. – P. 87–91. – URL: https://confrencea.org/index.php/confrenceas/article/view/138.
10. Babanskiy Yu.K. Классификация методов обучения [Elektron resurs]. – 2022. – URL: https://studbooks.net/1756455/pedagogika/klassifikatsiya_metodov_obucheniya_babanskiy.
11. Ergashev A. Bo'lajak o'qituvchilarni integratsion kasbiy faoliyatga tayyorlash mexanizmlari muammo sifatida // TDPU Ilmiy axborotnomasi. – 2022. – № 8. – B. 273–277.
12. Hakimov R.R. Noiqtisodiy OTM bo'lajak mutaxassislarida tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari : dissertatsiya avtoreferati. – 2005.
13. Ilxomov B.I. Professional ta'lim tizimi boshqaruv xodimlarining iqtisodiy kompetentligini rivojlantirish (malaka oshirish tizimi misolida) : pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2021.
14. Inoyatov U.I., Muslimov N.A. Pedagogika : nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun darslik. – 2013.
15. Ismailova A.A. Национальная оценка образовательных достижений учащихся на основе опыта программы PISA. – 2013.
16. Jumanov X.T. Iqtisodiy bilim asoslarini o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2019.
17. Kamalova K.N. Bo'lajak mutaxassis-yoshlarda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari : nomzodlik dissertatsiyasi, 13.00.01. – Toshkent, 2005.
18. Karimova V.M. va boshq. Boshqaruv psixologiyasi : o'quv qo'llanma. – Fan va texnologiya, 2008.
19. Kozlova S.A. Психолого-педагогические основы организации общения детей дошкольного возраста. – Юрайт, 2023.
20. Krayevskiy V.V. Методология педагогического исследования : пособие для педагога-исследователя. – Изд-во СамГПИ, 1994.
21. Madrahimov H., Madrahimova R. Suv xo'jaligi iqtisodi va uni rejalashtirish. – Sharq, 2002.
22. Morozova G.M. Формирование экономической компетентности студентов вуза в процессе их профессионального образования : диссертация по специальности 13.00.08. – Sana ko'rsatilmagan.
23. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – 2015.
24. Nabiyev G'.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablari bo'lajak mutaxassislarining iqtisodiy munosabatlarga kirishish ko'nikmalarini rivojlantirish texnologiyalari ("Iqtisodiy bilim asoslari" fani misolida) : pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Namangan, 2021.
25. O'lmasov A. Iqtisodiy bilim asoslari : uslubiy qo'llanma. – G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2003.
26. Ovakimyan E.E. Развитие экономической компетентности студентов вуза : автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.08. – Chelyabinsk, 2010.
27. Pautova M.A. Формирование коммуникативной компетентности студентов экономических вузов как педагогическая проблема // Современное образование: традиции и новации. – 2006. – С. 284–285.
28. Podlavilcheva N.P. Дедуктивный метод как фактор эффективного формирования профессиональных компетенций студентов вуза экономического профиля : дис. ... канд. пед. наук. – Tula, 2013.
29. Puziyenko Yu.V. Формирование экономической компетентности студентов : дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01. – Orenburg, 2007.
30. Qodirov B.S. Innovative Development Prospects of the New Uzbekistan // Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Vol. 3, No. 12. – P. 902–904.
31. Quchqorova M.N. Kompleks yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish : pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Nukus, 2020.
32. Razzoqov A., Toshmatov Sh., O'rmonov N. Iqtisodiy ta'limotlar tarixi. – Moliya, 2002.
33. Saipnazarov A.Sh. Akademik litseylar matematika kursida bo'lajak mutaxassislarning iqtisodiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish : nomzodlik dissertatsiyasi, 13.00.02. – Toshkent, 1998.
34. Salimov V.T., Hamidov Q.S., O'roqov N.I. Mikroiqtisodiyot : o'quv qo'llanma. – Ijod dunyosi, 2003.
35. Sayfullayeva N.Z. Bo'lajak mutaxassislarda iqtisodiy tafakkurni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish (iqtisodiy fanlarni o'qitish misolida) : pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand, 2022.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 8/1**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz